

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

**O‘ZBEK TILINI O‘QITISH SAMARASINI
OSHIRISHGA E’TIBOR ZARUR**

Qodirjon To‘raboyevich Zulunov

Andijon davlat pedagogika instituti

mustaqil tatqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan o‘zbek tili maqomini tiklashdek ezgu maqsada davlat tili sifatida nufuzini oshirish, davlat tilini milliy qadriyat sifatida, milliy g‘urur hissini tarbiyalash vazifalari hamda mamlakatimizda keyingi yillardagi amalgalash oshirilayotgan islohatlar xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, tarixiy hujjat, inson huquqlari, ma’naviyat, qadriyat, ajdod, milliy o‘zlik.

O‘zbekiston Prezidenti bugungi murakkab va tahlikali hayot oldimizga qo‘yayotgan vazifalardan kelib chiqib, ma’naviyat va ma’rifat sohasida qator dolzarb masalalarini hal etishga e’tiborni qaratib kelmoqda. Shu ustuvor vazifalardan biri o‘zbek tilining davlat tili maqomini amalda kuchaytirishdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’ifat kengashining yig‘ilishida ham o‘zbek tilini o‘qitish samarasini oshirish masalasiga e’tibor qaratildi.

O‘zbek xalqi o‘z madaniyati va ma’naviyatida komil insonlar tarbiyasiga alohida e’tibor bergen va bunday komillik darg‘alarini yetishtirish har bir zamonda muhim sanalgan. O‘zbek millatiga berilgan ulug‘ ne’mat - tildir. Buyuk ma’ifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Ajdodlarimizning milliy o‘zligimizning bosh mezoni hisoblangan tilga bo‘lgan e’tibor har qaysi davr uchun dolzarb bo‘lib kelgan. Ta’kidlash joiz, xalqimiz orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning 1989-yil 21-oktyabrdagi qabil qilinishi mustaqillik va mamlakat suvereniteti sari qo‘yilgan daslabki qadam edi. Ushbu tarixiy hujjat tufayli o‘zbek tili yuksak maqomga ega bo‘ldi. Oradan ma’lum yillar o‘tib, o‘zbek tilining nufuzi va mavqeini oshirishga qaratilgan yana bir muhim hujjat imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabr kuni “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzolandi. Mazkur hujjat bilan 21-oktyabr sanasi yurtimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi. Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti tomonidan “Qadring baland bo‘lsin, ona tilim” mavzusida respublika tanlovi o‘tkazildi. Tanlovdan maqsad o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzni oshirish, davlat tilini milliy qadriyat sifatida targ‘ib qilish, unga nisbatan milliy g‘urur hissini tarbiyalash, eng muhimimi

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

davlat tiliga oid muammolarni hal qilishda ilmiy-amaliy yondashuvni rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekiston Prezidenti O‘zbekiston tarixida ilk marta davlat tili-o‘zbek tilida 2020-yil 23-sentyabrdan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi chiqishida nutq so‘zlandi.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi.O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’y nazar, qonun oldida tengdirlar. O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat. Hozirda yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elatlarning madaniyati va urf-odatlarini, xususan, ularning ona tillarining rivojlantirish uchun xamma sharoitlar yaratilgan. Respublikamizning turli hududlarida tashkil etilgan 140 ga yaqin milliy madaniyat markazlari ana shu maqsadlarga xizmat qilmoqda. Ko‘plab ta’lim-tarbiya maskanlari, ommaviy axborot vositalari o‘zbek tili bilan birga, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman tillarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ma’lumotlarda ta’kidlanishicha, yer yuzida 5621 ta til va sheva mavjud. Hozirgacha ulardan 500 tasigina o‘rganilgan, xalos. Har uch tildan bittasining yozuvi yo‘q, faqat og‘zaki nutq shakliga ega. Ayni paytda sayyoramizda o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar soni qariyb 50 million kishini tashkil etishi uning dunyodagi yirik tillardan biri ekanini namoyon qiladi.

Jumladan, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit-turk” asari turkiy xalqlarning tilshunosligiga hamda madaniyatiga ulkan hissa qo‘shgan. Qoshg‘ariy turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini kezib lug‘atlarini to‘plagan. Asarda 6 mingdan ortiq turkiy so‘zlarga atroflicha izoh berilgan bo‘lib, bu juda katta manba xisoblanadi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini kiritish joizdir. O‘zbek til tarixini ilmiy ravishda o‘rganishda Ahmad Yugnakiyning “Hibatul haqoyiq” asari eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiyning turkiy til mavqeini ko‘tarish yo‘lidagi kurashi haqida fikr yuritganda, birinchi navbatda, “Muhokamat ullug‘atayn” asariga to‘xtalish ayni muddaodir. Zero, ushbu asar timsolida uning muallifi tilimizning boy imkoniyatlarini ko‘rsata olgan va arab hamda fors tillaridan hech qaysi jixatidan kam bo‘lmagan go‘zal va qudratli til ekanligini isbotlab bergen zabardast tilshunos olim sifatida o‘zini yorqin namoyon etgan. Hatto Temur saroyida turkiy tilning davlat tili darajasiga olib chiqish oxiriga yetkazilmay qolgan. Shunday bir sharoitda Alisher Navoiy o‘z oldiga turk –o‘zbek tili maqomini tiklash maqsadini qo‘ydi. Shu ma’noda,

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bugungi kunda xorijda va yurtimizda o‘zbek tilini o‘rganish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda ona tiliga muhabbat, uni ulug‘lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham ongu tafakkurimizga, yuragimizga , avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib kelgani bizga nihoyatda qo‘l keladi. Zotan, ulug‘ajdodimiz o‘zining o‘zbek tili maqomini tiklashdek ezgu maqsadiga erishdi – butun mamlakatni yakqalam, ya’ni bir tilli qildi. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripovning mashhur “O‘zbekiston” qasidasida e’tirof etilganidek..

“Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.” Shunday ekan, o‘zbek tilining obro‘-e’tiborini oshirish, mamlakatimizda davlat tilining to‘laqonlik joriy etilishni ta’minalash har bir millatdoshimiz muqaddas burchi bo‘lmog‘i kerak. Hozirgi globallashuv har qanday halq va davlatni o‘zining milliy madaniyati, qadriyatlar, an’analarini va ayniqsa, tilini asrab-avaylash hamda rivojlantirib borishni taqazo etmoqda. Shunday ekan, o‘zbek tilining obro‘-e’tiborini oshirish, mamlakatimizda davlat tilining to‘laqonli joriy etilishni ta’minalash har har bir millatdoshimizning muqaddas burchi bo‘lmog‘i kerak.

Foydalangan adabiyotlar

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2023-yil 23-dekabr.
2. WWW.yuz.uz
3. [https.lex.uz/docs](https://lex.uz/docs). [https.ltx.uz/docs](https://ltx.uz/docs).